

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON, 2024

## ILMIY TADQIQOT JARAYONIDA TADQIQ OBYEKTI VA TADQIQ PREDMETI MASALALARI

### (ONA TILI FANI MISOLIDA)

*Tojiboyeva Mushtariy Rustam qizi*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tadqiq obyekti va tadqiq predmeti tushunchalarining mohiyati ona tili fani misolida ochib berildi, ilmiy tadqiqot ishiga sarlavha tanlashda tadqiq obyekti va tadqiq predmetiga e'tibor berilishi lozimligi haqida so'z bordi.

**Kalit so'zlar:** tadqiq obyekti, tadqiq predmeti, kombinator fonetika, diaxronik fonetika, mikrotoponimlar, ilmiy g'alizlik, lingvistik ta'minot, tadqiqot mavzusi.

Har qanday ilmiy tadqiqotda **tadqiq obyekti** va **tadqiq predmeti** mavjud bo'ladi. Ana shu ikki jihatni farqlamaslik ko'pincha tadqiqotning samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiq obyekti bu – butunlik, umumiylilik. Tadqiq predmeti ana shu butunlikning bir qismi. Shu umumiylilikning ma'lum bir alohida jihatni, alohida aspektidir. Olimlar uni aspekt atamasi bilan ham yuritishadi. Tadqiq obyekti – borliqdagi o'rganish uchun tanlab olingan narsa-hodisa. Bu obyekt barcha tadqiqotlar uchun umumiy bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tilshunosligi bo'yicha tadqiqot olib borayotgan olimlar izlanishlarining umumiy obyekti bu o'zbek tilidir. Ingliz tili bo'yicha tadqiqot olib borayotgan olimlarning tadqiqot obyekti ingliz tili. Tadqiq obyekti yuzlab qirralarga ega bo'lishi mumkin. Ana shuning tadqiq uchun tanlab olingan bir qirrasi tadqiq predmeti deyiladi.

Tadqiq obyekti	Tadqiq predmeti
Tor	Keng
Umumiy	Xususiy
Butun	Qism

Jadvalda aks ettirilganiday, bir-biriga nisbatan olinuvchi terminlar va kategoriylar bilan tadqiq obyekti va tadqiq predmeti tushunchalarining mohiyatini o'zaro qiyoslagan holda sharhlash mumkin. Misol uchun, o'zbek tilidagi [A] fonemasi – tadqiq obyekti hisoblanadi. U qachon tadqiq obyekti hisoblanadi? Qachonki, uning qator qirralari alohida-alohida ilmiy tadqiq qilinganda [A] fonemasi tadqiq obyekti sifatida namoyon bo'ladi. [A] fonemasi bitta butunlik, umumiylilik, mohiyat, imkoniyat va sabab, albatta, shuning uchun ham u keng va serqirra. Uning har bir qirrasini aniqlash va ilmiy tadqiq qilish mumkin. Ana shu tadqiq obyektining tadqiq predmetlari ajralib, ajratilib olishi natijasida fanlarda yo'naliishlar paydo bo'ladi. Masalan, [A] fonemasining bir qirrasi eshitilish va hosil bo'lish xususiyati, bu esa fanda akkustik-artikulyatsion xususiyat deyiladi. Mana shu xususiyat [A] fonemasining bir qirrasidir. Bu qirrani **eksperimental fonetika** o'rganadi. O'zbek tilshunosligida Soraxon Otamirzayeva, Miraziz Mirtojiyev, Jo'ra Mamatov kabi qator tilshunoslari o'zbek tilidagi fonetik hodisalarning akkustik-artikulsatsion xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanishgan. E'tibor qiladigan bo'lsak, tadqiq obyektining bir qirrasi asosida tilshunoslikdagi alohida bir yo'naliish shakllangan. Shu bilan birgalikda [A] fonemasi faqat shu qirra bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu fonema nutqda voqealanganda o'zining atrofidagi o'zidan oldingi yoki keyin kelgan nutq tovushlariga ta'sir qiladi. Ular bilan qurshov hosil qilgandan keyin bu yerda fonemaning yangi qirralari namoyon bo'ladi. Ana shu qurshov xususiyati tilshunoslikdagi alohida yo'naliish

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON,2024

*kombinator fonetikaning* tadqiq predmeti hisoblanadi. Shu bilan birgalikda barcha til hodisalari qatorida [A] fonemasi ham qadimdan rivojlanib, taraqqiy etib kelmoqda. Taxminan, bu lablanmagan quyi keng [A] fonemasi bundan 500-600 yil avval lablangan bo‘lishi mumkin. Ana shu rivojlanish jarayonida uning mohiyati qisman o‘zgaradi. Fonemalar davr o‘tishi natijasida boshqa bir fonemaga aylanib borishi mumkin. Bu tilshunoslikda tovushlarning konvergensiysi va divergensiysi degan terminlar bilan nomlanadi va shu jarayon **dixronik fonetikada** o‘rganiladi. Dixronik fonetika [A] fonemasining rivojlanish qirrasini tadqiq qiladi. Shuningdek, bu fonema jamiyat mahsuli hisoblanib, jamiyat a’zolari uchun xizmat qiladi. Lisoniy jamiyat mahsuli va lisoniy jamiyat uchun xizmat qiladi. Bunda u ijtimoiy vazifa bajaradi. Fonemaning ma’no farqlash, ma’no kuchaytirish, ma’noga ta’sir qilish vazifalari uning ijtimoiy xususiyatidir va bu xususiyat **sotsial fonetikada** o‘rganiladi. Yana bu fonema paradigmatic xususiyatlarga ham ega. Bu uning beshinchi qirrasi. U [O] fonemasi bilan qaysi jihatlariga ko‘ra farqlanib, unga qarama-qarshi turib, qaysidir jihatlariga ko‘ra esa u bilan umumiylig kasb etadi. Ana shu farqlilik va o‘xhashlik xususiyati fanda paradigmatic xususiyat deyiladi va **struktural fonetikaning** o‘rganish predmeti hisoblanadi. Bu fonemaga o‘xhash tovushlar borliqda ham mavjud. Ba’zan hayvonlarning [A] ga monand tovushlari, ayrim fizik va biologik tovushlar ushbu fonema bilan uyg‘unlik kasb etadi. Yosh chaqaloq endi tili chiqayotganda o‘zicha “A-a-a, da-da-da” kabi tovushlarni talaffuz qiladi. Bu tovushlar sotsial tovushlar emas, chunki bola ongli ravishda, biron maqsadni ko‘zlab talaffuz qilayotgani yo‘q. Buni beixtiyor o‘zining nutq salohiyatini shakllantirish uchun nutq a’zolarni ishga solish jarayonida ana shu tovushlarni talaffuz qiladi va bundan hosil bo‘lgan tovush tabiiy tovush hisoblanadi. Ana shu [A] ijtimoiy hodisasining tabiiy hodisalarga munosabatini o‘rganadigan fonetik yo‘nalish **naturalistik fonetika** deb yuritiladi. Demak [A] fonemasi tadqiq obyekti sifatida tabiiy xususiyatlarga ham ega. Bunday xususiyatlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi [A] ingliz tilidagi [A] fonemasi bilan o‘xhash va farqli jihatlarga ega. Bu esa [A] fonemasining tipologik xususiyati deyiladi. Bu xususiyat **tipologik fonetikaning** o‘rganish predmeti. Yoki bugungi kunda sun’iy intellektga tabiiy tilni o‘rgatish jarayonida [A] ning modellashtirilishi katta ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt o‘zbekcha [A] ni tanimog‘i uchun uning nutqdagi barcha variantlarini o‘zlashtirmog‘i lozim. Ana shundagina u [A] fonemasini o‘zlashtirgan hisoblanadi. Buning uchun dasturchilar [A] fonemasini sun’iy intellekt uchun modellashtiradilar. Demak, uning navbatdagi xususiyati modellashtirilish xususiyati hisoblanadi. Yoki navbatdagi predmeti [A] fonemasi badiiy nutqda badiiy san’atlar hosil qilish va umuman olganda, badiiy-estetik vazifa bajarish uchun xizmat qiladi. Demak, [A] fonemasining badiiy-estetik xususiyatini **poetik fonetika** o‘rganishi mumkin. O‘zbek tilshunosligida hali poetik fonetika yo‘nalishi fonetikaning alohida maxsus yo‘nalishi sifatida fonemalarning ma’lum bir qirrasini o‘rganadigan lingvistik yo‘nalish sifatida shakllanmagan. Bu siz bo‘lajak tilshunoslarning oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Har qanday ilmiy tadqiqotning sarlavhasida tadqiq obyekti va tadqiq predmeti aks etadi. Tadqiq obyekti ma’lum, tadqiq predmeti esa ana shu tadqiqotda ma’lum bo‘ladi. Misol uchun:

**“Unlilarning badiiy-estetik vazifikasi”**. Mana bu biron bir maqola uchun ham, magistrlik dissertatsiyasi uchun ham agar chuqurroq, asosliroq ishlanadigan bo‘lsa, falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun ham arziydigan muommoli tadqiqot bo‘la oladi. Ana shu mavzuda ranglar bilan ajratilgan ikki qism mavjud. “Unlilarning” qismi tadqiq obyekti bo‘lsa, “badiiy-estetik vazifikasi” tadqiq predmeti hisoblanadi. Demak, mana shu “Unlilarning badiiy-estetik vazifikasi” mavzusida tadqiqot olib borayotgan olim uchun unlilar tadqiq obyekti hisoblanadi, uning bir qirrasи, ya’ni badiiy-estetik vazifikasi tadqiq predmeti.

**“Mikrotoponimlarning strukturasi”** mavzusida mikrotoponimlar tadqiq obyekti, chunki bu ko‘pchilik olimlar tomonidan o‘rganilgan, lekin ularning strukturasi masalasi maxsus

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON,2024

o‘rganilmagan. Shuning uchun bunday nomlangan tadqiqotda “mikroponimlarning” qismi tadqiq obyekti, “strukturasi” qismi esa tadqiq predmeti hisoblanadi.

**“Tog‘ay Murod romanlarida metafora”** mavzusini oladigan bo‘lsak, Tog‘ay Murod romanlari juda ko‘p olimlar tomonidan o‘rganilgan. Biz yuqorida aytgan edik: tadqiqot obyekti juda ko‘p tadqiqotlar uchun umumiy bo‘ladi. O‘rganilgan tadqiqotlarning barchasida Tog‘ay Murod romanlari tadqiq obyekti hisoblanadi. Lekin Tog‘ay Murod romanlarida qo‘llangan metafora maxsus o‘rganilmagan. Shu mavzuni tanlangan kishi metaforani o‘z tadqiqotining predmetiga aylantiradi.

**“O‘zbek tili morfoanalizatorining lingvistik ta’mnoti”.** O‘zbek tili morfoanalizatori serqirra hodisa. Uning dasturiy ta’mnoti bo‘lishi mumkin, algoritmiq ta’mnoti bo‘lishi mumkin va hokazo. Lekin shuning bir qirrasi lingvistik ta’mnoti. Ko‘rinadiki, har qanday sarlavhada tadqiq obyekti va tadqiq predmeti aks etadi va u aniq, ravshan bo‘lishi kerak. Ba’zan tanlangan mavzularda g‘alizlik mavjud bo‘ladi. Deylik, “Mikroponimlarning lisoniy xususiyatlari”. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, mikroponimlar tadqiq obyekti sifatida berilyapti va lisoniy xususiyatlari tadqiq predmeti sifatida olinyapti. Ammo lisoniy xususiyatlari tushunchasi juda keng. Bu hatto mikroponimlardan ham kengroqdek tasavvur uyg‘otadi. Shuning uchun bu yerda lisoniy xususiyatlari deganda aynan nima nazarda tutilayotganligi ochiq-oydin berilishi kerak. Mavzu tanlashda mana shu jihatlarga alohida e’tibor qaratish ahamiyatga molikdir. Yoki ba’zilar “Mikroponimlarning linvistik tadqiqi” degan mavzuni tanlaydilar. Bu yerdagi mikroponimlar tadqiq obyekti, lingvistik tadqiqi tadqiq predmeti bo‘ladi. Bu yerda tadqiq predmetidan ko‘zda tutilayotgan narsa mikroponimlarning linvistik xususiyatlari, lekin sarlavhaga lingvistik tadqiqi degan so‘z birikmasini kiritgan. Bu yerdagi g‘alizlik shundan iboratki, lingvistik tadqiqi deganda ana shu mikroponimlar bo‘yicha kimlar, qanday, qachon, qay ko‘rinishdagi tadqiqotlarni amalga oshirishgan, amalga oshirishyapti va kelajakda qanday tadqiqot ishlarini amalga oshirish mumkin. Bu boradagi vazifalar nimadan iborat, degan mazmun-ma’no anglashiladi va tanlangan mavzu bilan tadqiqotning mazmuni mos kelmaganday degan tasavvur uyg‘onishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun tadqiqot ishida uning sarlavhasida *tadqiqi, tahlili* kabi so‘zlarни ishlatish o‘zini oqlamaydi. Siz tahlil qilayotgan ekansiz, tahlili deyishingiz kerak emas. Siz tadqiq qilayotgan ekansiz, tadqiqi degan terminning bu yerda ishlatilishi noo‘rin. Shuning uchun tadqiq mavzusi juda katta ahamiyatga ega. Tadqiq manbayiga, ya’ni obyektiga turlicha yondashish mumkinligi sababli bir tadqiq manbayini turli jihatdan o‘rganish mumkin. Masalan, unlilar bo‘yicha qancha ishlar bajarilgan bo‘lishiga qaramasdan, uning yangi bir xususiyatini ochish uchun unlilarning o‘zbek tilidagi unlilar obyektini yana tadqiqot mavzusiga aylantirish mumkin. Faqat bunda tadqiq predmeti aniq ifodalaniishi kerak. Aytiganidek, ilmiy tadqiq mavzusi (sarlavhasi) tadqiq manbai va predmetiga ishora qiladi. Ana shu ikki jihatni farqlamasdan mavzuni shakllantirish mumkin emas va tanlangan mavzuda so‘zlar soni ham sanoqli bo‘lishi, 8-9ta so‘zdan oshmasligi kerak. Agar oshib ketadigan bo‘lsa, mavzuda g‘alizlik paydo bo‘ladi, tadqiq manbai va predmeti farqlanmay qoladi va bunday holat ishni rasmiy jihatdan qabul qiluvchilar tomonidan e’tirozga sabab bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqot ishi bilan shug‘ullanayotgan, ayniqsa, shug‘ullanmoqchi bo‘lgan yosh tadqiqotchilar tadqiq obyekti va tadqiq predmetining o‘zaro farqini chuqurroq anglab olsa, o‘ylaymizki, u tadqiqot jarayonida ilmiy g‘alizliklarga, chuqur ilmiy xatoliklarga yo‘l qo‘ymaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Peregulov L.V., Saidov M.X., Aliqulov D.E. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Toshkent: “Moliya” nashriyoti, 2002.
2. Yusufbekov.N.R., Muhammedov B.E., G‘ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1997.
3. Asilova G.A. Ilmiy Tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent. 2020.
4. <http://www.vak.uzsci.net>
5. <http://dissertatsija.com/>